



QURILISH, UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VA
QURILISH MATERIALLARI SANOATI SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**ICHIMLIK SUVI TA‘MINOTI VA OQOVA
SUVLARNI CHIQRIB YUBORISH
TIZIMLARI MONTAJCHILARI**



“Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlari montajchilari” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Qurilish, uy-joy kommunal xo’jaligi va qurilish materiallari sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlari montajchilari

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0038



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Suv ta'minoti tizimi montajchisi", "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimi montajchisi", "Suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari kuzatuvchisi", "Suv va kanalizatsiya tizimlarini montaj qilish, foydalanish va ta'mirlash texnigi", kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

oqova suvlar – suvni iste‘mol qilish va (yoki) undan foydalanish natijasida hosil bo‘ladigan hamda oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlari orqali oqizib yuboriladigan suv;

oqova suvlarni chiqarib yuborish – oqova suvlarni ichimlik suvi ta‘minoti tashkilotining tasarrufida bo‘lgan oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga qabul qilish va ularni oqova suvlarni tozalash inshootlariga chiqarib yuborish.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5577-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6119-son Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-151-son Farmoni.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT 2.1- Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

SHHV - Shaxsiy himoya vositalari.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlari montajchilari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlari va sanitar-texnik tizimlar sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarining asosiy maqsadi – aholi, ijtimoiy, kommunal va sanoat obyektlarini me'yoriy-texnik talablarga muvofiq ravishda toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va oqova suvlarni xavfsiz, ishonchli, uzluksiz ravishda chiqarilishini ta'minlovchi muhandislik kommunikatsiya tizimlarini loyiha asosida montaj qilish, jihozlash, sinovdan o'tkazish, ishga tushirish, ta'mirlash va foydalanishga tayyor holga keltirishdan iboratdir.	
3.	IFUT 2.1 bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	F seksiyasi Qurilish; 43 Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari; 43.2 Elektrotexnik, chilangarlik va boshqa qurilish-montaj ishlari; 43.22 Suv bilan ta'minlash, isitish va havoni konditsiyalash tizimlarini montaj qilish; 43.22.0 Suv bilan ta'minlash, isitish va havoni konditsiyalash tizimlarini montaj qilish.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Kasbiy standartning maqsadi — suv ta'minoti va oqova tizimlari montajchilariga qo'yiladigan bilim, ko'nikma va mehnat talablarini belgilash, hamda ularning kasbiy faoliyatini me'yorlashtirishdir. Ushbu mutaxassis qurilish va ta'mirlash ishlarida tizimlarni jihozlash, chilangarlik santexnik tizimlar montaj ishlarini amalga oshiradi. Mutaxassis mehnat muhofazasi va ekologik talablarga rioya qilgan holda, uzoq muddat xizmat qiladigan, xavfsiz va estetik jihatdan to'liq chilangarlik santexnik tizimlar montaj ishlarni tayyorlashni maqsad qiladi. Ushbu Kasbiy standart orqali ta'lim dasturlari ham ishlab chiqiladi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		71269 Suv ta'minoti tizimi montajchisi	3
		71269 Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimi montajchisi	3
		71269004 Suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari kuzatuvchisi	3
		31329006 Suv va kanalizatsiya tizimlarini montaj qilish, foydalanish va ta'mirlash texnigi	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	71269 Suv ta'minoti tizimi montajchisi	A1.3	Ichimlik suvi ta'minoti quvurlarini o'rnatish	A1.01.3	Quvurlarni o'lchamlash, kesish va shakl berish
				A1.02.3	Quvurlarni o'zaro bog'lash va montaj qilish
				A1.03.3	Quvur tizimini montajdan so'ng vizual va texnik tekshiruvdan o'tkazish
		A2.3	Ichimlik suvi ta'minoti tizimini sinovdan o'tkazish va foydalanishga tayyorlash	A2.01.3	Quvur tizimini sinovga tayyorlash va uskunalarni ulash
				A2.02.3	Bosim ostida sinovni amalga oshirish
				A2.03.3	Sinov natijalarini baholash va hujjatlash
2	71269 Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimi montajchisi	B1.3	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimini o'rnatish	B1.01.3	Quvur yo'nalishini belgilangan chizma asosida tayyorlash va belgilash
				B1.02.3	Quvurlarni kesish, ulash va mustahkamlash ishlarini bajarish
				B1.03.3	Armatura va sanitar-texnik uskunalarni o'rnatish
		B2.3	Quvur tizimlarini texnik sinovdan o'tkazish va ishga tushirish	B2.01.3	Sinovdan oldin quvur tizimining germetikligi va butunligini tekshirish
				B2.02.3	Quvurlarni bosim ostida oqish yo'qligini va bosimga bardosh bera olishini sinovini o'tkazish jarayoni
				B2.03.3	Sinov natijalarini baholash va texnik hujjatlarga qayd etish
		B3.3	Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish	B3.01.3	Suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarining holatini tekshirish va diagnostika qilish
				B3.02.3	Kamchiliklarni bartaraf etish ventil, kran, muftalarni almashtirish
				B3.03.3	Quvur ichidagi tiqilish va chiqindilarni tozalash
3	71269004 Suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari kuzatuvchisi	D1.3	Ish o'rnini tashkil qilish	D1.01.3	Ishchilarni yo'riqnomadan o'tkazish va vazifalarini belgilash
				D1.02.3	Ish o'rnida ishchilarning xavfsiz harakatlanishini belgilash
				D1.03.3	Ishchilarning sanitariya talablari asosida kiyinishi
		D2.3	Materiallarni qabul qilish va ishlatish	D2.01.3	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarida ishlatiladigan materiallarni tanlash
				D2.02.3	Ish o'rniga materiallarni kran yordamida uzatish va ishlatish
		D3.3	Asbob-uskunalarni tanlash va samarali ishlatish	D3.01.3	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarida ishlatiladigan asbob-uskunalarni tanlash
				D3.02.3	Ish o'rnida tanlangan asbob-uskunalarni samarali ishlatish
		D4.3	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib	D4.01.3	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini montaj qilish

			yuborish tizimlarini montaj qilish va ta'mirlash	D4.02.3	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini ta'mirlash
				D4.03.3	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlariga polimer materiallarini qo'llash
				D4.04.3	Quvur choklarini sifatli payvandlash
4	31329006 Suv va kanalizatsiya tizimlarini montaj qilish, foydalanish va ta'mirlash texnigi	E1.5	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini montaj qilish	E1.01.5	Loyiha asosida suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarining o'tkazilish yo'nalishini belgilash va tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish
				E1.02.5	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlarida montaj ishlarini bajarish
		E2.5	Turli diametrdagi suv va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlarini o'rnatish, payvandlash yoki muftali usulda ulash	E2.01.5	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlarida asosiy va yordamchi uskunalarning nosozliklarini aniqlash muammolarni bartaraf etish
				E2.02.5	Quvur tizimlarini mustahkamlash, montaj qilish izolyatsiyalash va vaqtinchalik yoki doimiy ustki qismini yopish
		E3.5	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlarini sinovdan o'tkazish va kamchiliklarni bartaraf etish	E3.01.5	Yangi o'rnatilgan yoki ta'mirlangan quvur tizimlarini gidravlik sinovlar orqali tekshirish
				E3.02.5	Suv sizishi, quvur yorilishlari yoki ventil nosozliklarini aniqlash uchun maxsus uskunalaridan foydalanish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi		Suv ta'minoti tizimi montajchisi	
Mashg'ulot nomining kodi		71269	
TMR bo'yicha malaka darajasi		3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar		Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:		Suv ta'minoti tizimi montajchisi suv quvurlari, armatura, nasos va hisoblagichlarni o'rnatish hamda ulash bo'yicha kamida 1–2 yillik amaliy tajribaga ega bo'lishi; loyihaviy hujjatlar asosida montaj ishlarini mustaqil bajarish, tizimni sinovdan o'tkazish va sozlash ishlarida ishtirok etgan bo'lishi; ilgari shunga o'xshash obyektlarda suv ta'minoti tizimini yig'ish va ishga tushirish tajribasiga ega bo'lishi lozim.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar		O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ushbu kasbda faoliyat yuritish uchun shaxs kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi; Ishga munosabat va xulq-atvor: rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; jamoalar bilan inoq ishlash; o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar		Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi		1)O'rta maxsus ta'lim 2)Umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi		-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari		-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi		TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi		Mehnat vazifalari	
		O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Quvur chizmasini tahlil qilish va o'lchamlarni aniqlash	

A1.3 – Ichimlik suvi ta’minoti quvurlarini o’rnatish	A1.01.3 – Quvurlarni o’lchamlash, kesish va shakl berish	2. Quvurni belgilangan uzunlikka ko’ra belgilash va o’lchash
		3. Quvurlarni kesish (qo’l vositasi yoki mexanik qurilmalar bilan)
		4. Kerakli burchak va yo’nalishda quvurni egish yoki shakl berish
		5. Quvurlarni payvandlash yoki biriktirish
		6. Tizimning germetikligini (suv o’tkazmasligini) sinovdan o’tkazish
		7. Nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish
		8. Ish davomida mehnat muhofazasi, sanitariya va yong’in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish
		Ko’nikmalar:
		O’lchash vositalari (ruletka, chizma, chiziq o’lchov)dan aniq foydalanish
		Quvur kesish uchun truborez, bolgarka yoki arradan xavfsiz va to’g’ri foydalanish
		Quvurni egish qurilmalari (quvur eguvchi uskuna) yordamida burchak berish
		Kesish va shakl berishda quvurning materialini inobatga olish
		Bilimlar:
	Quvur turlari (metall, plastik, PVX va h.k.) va ularning o’lcham standartlari	
	Kesish va egish jarayonlarida texnika xavfsizligi qoidalari	
	Quvurni shakllantirishda unga ta’sir etuvchi kuchlar va materialning fizik xossalari	
	A1.02.3 – Quvurlarni o’zaro bog’lash va montaj qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Quvurlarni o’rnatish sxemasi asosida joyiga joylashtirish va uzunlikka moslash
		2. Quvurlarni rezkali, muftali yoki payvand usulida o’zaro bog’lash
		3. Quvur tutashuv joylariga germetik moddalarni (FUM lenta, germetik pasta) qo’llash
4. O’rnatilgan quvur tizimini devor yoki poluqa mahkamlab, montajni yakunlash		
5. Quvurlarni o’lchash, kesish va ularning uchlarini tayyorlash (tozalash, tekislash)		
6. Quvurlarni payvandlash, yelimlash, rezkali yoki flansli ulash usullari bilan bog’lash		
7. Ish joyini tozalash va xavfsizlik talablariga rioya qilish		
Ko’nikmalar:		
Quvur ulamalarini tanlash va ularni to’g’ri biriktirish (mufta, ugolnik, troynik va h.k.)		
Qo’l vositalari (gayechный kalit, truborez, lenta) bilan samarali ishlash		
Germetik ulanishni ta’minlash va ulanma joylarini to’g’ri tekshirish		

		<p>Quvurni devor/polga to'g'ri va xavfsiz tarzda mahkamlash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Quvurlarni ulash turlari: rezbali, payvandli, press-fitingli va ularning afzalliklari</p> <p>Quvur armaturalari va bog'lovchi elementlarning turlari va ishlash prinsiplari</p> <p>Quvur o'tkazuvchanligi, siznishga qarshi himoya va montajdagi texnika xavfsizligi qoidalari</p>
	A1.03.3 – Quvur tizimini montajdan so'ng vizual va texnik tekshiruvdan o'tkazish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Butun quvur tizimini vizual ko'rik qilish: ulanish joylari, muftalar, armaturalarni tekshirish</p> <p>2. Siznish belgilari, nosoz ulanish yoki mexanik shikastlanishlarni aniqlash</p> <p>3. Tizimni suv yoki havo bilan bosim ostida sinovdan o'tkazish (texnik tekshiruv)</p> <p>4. Aniqlangan kamchiliklarni hujjatlash va zarur bo'lsa, bartaraf etish choralarini ko'rish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Vizual tekshiruvda mukammal kuzatish va nuqsonlarni aniqlash</p> <p>Bosim sinovini o'tkazish uchun asboblardan (manometr, nasos va h.k.) foydalanish</p> <p>Siznish va mustahkamlikni baholash mezonlarini bilib, xatolarni tezkor topish</p> <p>Sinov natijalarini aktga qayd etish va hujjatlash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Quvur tizimida vizual tekshirish talablari va belgilari (o'qish, siljish, tarqoqlik)</p> <p>Gidravlik va pnevmatik sinov o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralarini</p> <p>Manometr, klapan, sinov nasoslari va ularning ishlash prinsipi</p> <p>Sinov natijalarini baholash standartlari (GOST, SNiP va boshqalar)</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Sizish yoki nosoz ulanish holatlarini oldini olish</p> <p>2. Ish vaqtida texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish</p> <p>3. Asboblardan ishlaganda ehtiyot choralarini ko'rish</p> <p>4. Ish jarayoni va natijalarini o'z vaqtida tekshirish va hisobot berish</p> <p>5. O'rnatilgan tizimning tayyorligini nazorat qilish va topshirish</p>
		<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Quvur tizimini sinovdan oldin to'liq yig'ish va ulamalarni tekshirish</p>

A2.3 – Ichimlik suvi ta’minoti tizimini sinovdan o’tkazish va foydalanishga tayyorlash	A2.01.3 – Quvur tizimini sinovga tayyorlash va uskunalarni ulash	2. Manometr, klapan va sinov nasoslari kabi zarur uskunalarni tizimga ulash
		3. Quvur tizimini suv yoki havo bosimi ostida sinovga tayyor holatga keltirish
		4. Sinov jarayonidagi xavfsizlikni ta’minlash uchun klapanlar va nazorat jihozlarini tekshirish
		5. Sinov vaqtida oqish, siqilish yoki nosozliklarni aniqlash
		6. Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish va tizimni qayta tekshirish
		Ko’nikmalar:
		Sinov uchun zarur bo’lgan jihoz va uskunalarni to’g’ri tanlash va tayyorlash
		Manometr va boshqa nazorat asboblarini tizimga xavfsiz ulash
		Quvur tutashuvlarini sinovgacha vizual va texnik ko’rikdan o’tkazish
		Sinov vaqtida tizimni nazorat qilish va xavfsizlik talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Sinov jarayonida ishlatiladigan asosiy uskunalari va ularning vazifalari (manometr, nasos, klapan va h.k.)
		Gidravlik va pnevmatik sinov qoidalari hamda ularning farqlari
		Quvur tizimini bosim ostida tekshirish uchun tayyorlash talablari
	Sinov paytida sodir bo’lishi mumkin bo’lgan xavflar va ularni bartaraf etish choralari	
	A2.02.3 – Bosim ostida sinovni amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Quvur tizimiga manometr, sinov nasoslari va xavfsizlik klapanlarini ulash
		2. Quvur tizimiga belgilangan me’yordagi bosimni berib, sinovni boshlash
		3. Bosimni ma’lum vaqt davomida ushlab turish va manometr ko’rsatkichlarini kuzatish
		4. Sizinsh, oqish yoki bosim tushishi holatlarini aniqlab, qayd etish va tahlil qilish
Ko’nikmalar:		
Bosim sinovi uchun mos asbob-uskunalarni (nasos, manometr, klapan) to’g’ri o’rnatish va ishlatish		
Bosimni aniq nazorat qilish va xavfsizlik talablarini to’liq bajarish		
Sinov vaqtida boshqaruv uskunalarni kuzatish va tahlil qilish		
Sinov natijalari asosida tizimning ishonchligini baholash		

		Bilimlar:
		Gidravlik bosim sinovi me'yorlari (GOST, SNiP, mahalliy qoidalarga muvofiq)
		Manometr va sinov qurilmalari ishlash prinsipi va foydalanish qoidalari
		Bosim ostidagi sinov jarayonida yuzaga keladigan xatolar va ularni bartaraf etish usullari
		Xavfsizlik texnikasi va avariya holatida harakat qilish tartibi
	A2.03.3 – Sinov natijalarini baholash va hujjatlash	Mehnat harakatlari:
		1. Sinovdan so'ng manometr, datchik va boshqa o'lchov uskunalari ko'rsatkichlarini tahlil qilish
		2. Bosim pasayishi, oqish, siznish yoki boshqa kamchiliklarni aniqlash va baholash
		3. Sinov natijalariga asosan tizimning ishonchliligi va germetikligini baholash
		4. Tekshiruv natijalarini maxsus sinov akti yoki jurnalga rasmiylashtirish
		Ko'nikmalar:
		Sinov o'lchovlarini to'g'ri o'qish va manometr natijalarini tushunish
		Sinovdan keyin tizimning texnik holatini to'g'ri baholash
		Kamchiliklar mavjud bo'lsa, ularni aniq ifoda etish va tavsiya berish
		Sinov aktini rasmiy va texnik talablarga muvofiq to'ldirish
		Bilimlar:
		Bosimli sinovlar uchun belgilangan normativ hujjatlar (GOST, SNiP va h.k.)
		Sinov protokollari va texnik hujjatlar tuzish talablari
		Germetiklik va mustahkamlikning baholash mezonlari
		Tizim ishonchliligi bo'yicha xulosa berishda texnik va huquqiy talablar
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Sinovdan o'tkazish jarayonida texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena talablariga qat'iy rioya qilish	
	2. Har qanday favqulodda vaziyatlarni oldini olish va tezkor chora ko'rish	
	3. Suv ta'minoti tizimining bosim ostida sizishlar va nosozliklar uchun mukammal tekshiruvni ta'minlash	
	4. Har bir uzal va bog'lovchini sinchkovlik bilan nazorat qilish	
	5. Tizimning barcha qismlarini to'g'ri ulash va ishga tushirish	
	6. Foydalanishga topshirishdan oldin tizimning ishonchliligi va mustahkamligini mustaqil ravishda baholash	
	7. Tizimni qo'llashga tayyor ekanligini aniqlash va topshirish	

Texnik va/yoki texnologik talab	Quvur kesish mashinasi (truborez) belgilangan o'lchamda tez va aniq kesish; Quvurlarni kerakli burchakda egish va shakl berish; Polimer va metall quvurlarni payvand qilish; Quvurlarni va fittinglarni rezba orqali bog'lash; Manometr va bosim sinovi uskunalari quvur tizimining bosimga chidamliligini tekshirishda foydalanish; Quvurlarni mustahkamlash, bog'lash va boshqa montaj ishlarini bajarish; Quvurlarni yopish va mustahkamlash sizishlarni oldini olish uchun germetik vositalar qo'llash.
--	---

Kasbning nomi	Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimi montajchisi	
Mashg'ulot nomining kodi	71269	
TMR bo'yicha malaka darajasi	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Suv ta'minoti va oqova suv tizimlarini o'rnatish, ulash va sinovdan o'tkazish bo'yicha kamida 1–2 yillik amaliy ish tajribasiga ega bo'lishi; quvur tarmoqlarini yig'ish, armatura va sanitariya uskunalarni montaj qilishda ishtirok etgan bo'lishi; tizimlarning ishlash prinsipi, ularni sozlash va texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini amalda bajarish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ushbu kasbda faoliyat yuritish uchun shaxs kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi; rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	1)O'rta maxsus ta'lim 2)Umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 – Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimini o'rnatish	B1.01.3 – Quvur yo'nalishini belgilangan chizma asosida tayyorlash va belgilash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Loyiha chizmaga asosan quvur yo'nalishini o'lchash va belgilangan nuqtalarni aniqlash
		2. Devor, pol va ustunlarda belgilash ishlarini maxsus asboblarda yordamida amalga oshirish
		3. Quvur o'tkaziladigan joylarda teshish, chizish va belgilangan o'lchamlarda ishlash

		4. Yo'nalishdagi burilishlar, ulanmalar va tutashuv nuqtalarini belgilash va ajratish
		5. Sizish, oqish yoki boshqa nosozliklarni aniqlab, bartaraf etish
		6. Quvurlarni egish, rezba ochish, payvandlash yoki biriktiruvchi qismlar (fitinglar) o'rnatish
		Ko'nikmalar:
		Chizmalarni o'qish va ular asosida quvur o'tkazish yo'nalishini aniqlash
		O'lchov asboblari (ruletka, nivelir, lazer o'lchagich va boshqalar)dan foydalanish
		Tuzilmalarni buzmasdan belgilash ishlarini aniq va xavfsiz amalga oshirish
		Quvurlar o'rnatilishi kerak bo'lgan joylarda teshish va belgilashni texnika talablariga muvofiq bajarish
		Quvurlarni to'g'ri o'lchamda kesish, egish, rezba ochish va qirralarini ishlov berish
		Binolar uchun suv va oqova tizimlarini standart asosida o'rnatish
		Sizish yoki tiqilib qolish hollarini aniqlash va tezda bartaraf etish
		Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va xavfli omillarga tayyor turish
		Bilimlar:
		Quvur tizimlarining loyihalash asoslari va montaj sxemalarini tushunish tartibi
		Belgilash va o'lchash asboblari turlari va ularning tuzilishi
		Quvur burilishlari, ulanish nuqtalari va qiyalik (uklon) talablari
		Devor, pol va boshqa konstruksiyalarda teshish/bo'shliq yaratish qoidalari va xavfsizlik me'yorlari
		Ish paytida xavfsizlik texnikasi va shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish tartibi
		Asboblarni profilaktika qilish va xavfsiz saqlash qoidalari
	B1.02.3 – Quvurlarni kesish, ulash va mustahkamlash ishlarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Quvurlarni belgilangan o'lchamda chizma asosida kesish (truborez, ara, elektr uskunalar bilan)
		2. Kesilgan quvurlarni ulanish turiga mos ravishda (rezba, payvand, muftali va boshqalar) tayyorlash
		3. Quvurlarni to'g'ri burchak va burilishlar bilan ulash va montaj sxemasiga muvofiq joylashtirish
		4. Quvur ulanish joylarini germetik va mustahkam holda mustahkamlash (styajka, kronshteyn, xomutlar bilan)
		5. Quvurni devorga, polga yoki potolokka maxsus klipsalar va tayanchlar yordamida joyiga mustahkam o'rnatish
		6. Ulangan joylarni tekshirish, bo'shagan birikmalarni kalit yoki maxsus asboblardan mahkamlash

		7. Ulanish joylarida zaif birikmalar, teshiklar bor-yo'qligini tekshirish
		8. Quvur kesish va payvandlash paytida himoya ko'zoynagi, qo'lqop, respirator kabi shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish
		Ko'nikmalar:
		Quvur materiallariga mos asboblardan to'g'ri kesish va yuza tayyorlash
		Rezbali, muftali yoki payvand ulanishni aniq va sifatli bajarish
		Quvurlar oralig'ini, burchak va qiyaliklarini o'lchash va tekshirish
		Quvurlarni konstruksiyaga xavfsiz va qat'iy mustahkamlash
		Quvurlarni loyiha asosida aniq o'lchash va belgilangan joydan kesish
		O'lchov asboblari (ruletka, sath o'lchagich, o'lchov trubalari) bilan tekshirish
		Quvur kesish va payvandlashda himoya vositalaridan foydalanish (qo'lqop, ko'zoynak va h.k.)
		Bilimlar:
		Quvur turlari (metall, plastik, polipropilen) va ularning xususiyatlari
		Kesish va ulash usullari: mexanik, termik, payvandlash, rezbali birikmalar
		Quvurlarning bosimga chidamliligi, issiqlikka bardoshligi va korroziyaga qarshi mustahkamligi
		Quvur kesish usullari (truborez, ruchnoy pila, elektr arra va h.k.)
		Quvur o'tkazishda belgilangan qiyalik va yo'nalishlarni saqlash qoidalari
		Quvur kesuvchi, rezba, payvand qurilmalari, burg'ulash uskunalari va ular bilan ishlash asoslari
		Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish (ko'zoynak, qo'lqop, respirator va h.k.) tartibi
	B1.03.3 – Armatura va sanitar-texnik uskunalarni o'rnatish	Mehnat harakatlari:
		1. Sanitar-texnik uskunalari (yuvgich, vanna, unitaz, dush, kran va h.k.) uchun joyni tayyorlash va belgilash.
		2. Armatura (suv krani, klapanlar, filtrlar) va sanitar jihozlarni chizmaga asosan joyiga o'rnatish.
		3. Quvurlarga ulanish nuqtalarida germetik va mustahkam birikmalar hosil qilish.
		4. O'rnatilgan uskunalarning to'g'ri ishlashini sinovdan o'tkazish va texnik holatini baholash.
		5. Quvur yoki devorda uskuna o'rnatiladigan joyni aniqlash va belgilovchi chiziqlar chizish.
		6. Moslashtirish ishlari teshik ochish, sirtni tozalash, mustahkamlash uchun platforma tayyorlash.

		7. Rezbali yoki payvandli usul bilan to'g'ri va germetik ulashni amalga oshirish
		8. Uskunani devor, pol yoki platformaga mustahkam o'rnatish (boltlar, krepyojlar, ankeralar bilan).
		Ko'nikmalar:
		Sanitar jihozlar va armatura elementlarini chizmaga asosan to'g'ri tanlash va o'rnatish.
		Turli xil materiallarda (beton, plitka, gipsokarton va h.k.) teshik ochish va mustahkam o'rnatish.
		Germetik ulanishlarni tekshirish, jipslikni ta'minlash va zarur holda tuzatish.
		O'rnatilgan jihozlarni ekspluatatsiyaga tayyor holga keltirish va mijozga tushuntirish.
		Sath (uroven) bo'yicha uskunani to'g'ri joylashtirish va mahkamlash (ankera, bolt, vintlar orqali).
		Quvur ulanish nuqtalari va uskunalar o'rtasidagi o'lchamlarni aniq saqlash
		Rezbali, muftali, payvandli, yoki maxsus fittingli ulash turlarini to'g'ri bajara olish.
		Oqishlar, bosim tushishi, sizish, to'g'ri ishlamaslik kabi nosozliklarni aniqlash
		Xavfsiz ishlash, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish
		Bilimlar:
		Sanitar-texnik uskunalar turlari, ularning tuzilishi va montaj qoidalari.
		Armatura (klapan, ventil, filtr va boshqalar) turlari va ularning vazifalari.
		Suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimi uskunalari
		Montaj jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldini olish usullari.
		Kamchiliklarni bartaraf etish va qayta montaj qilish tartibi
		Kranlar, ventillar, filtrlar, reduktorlar, suv hisoblagichlar (schyotchiklar) kabi armatura elementlarining vazifalari va ishlash prinsiplari
		Elektr uskunalar bilan ishlashda, suv bilan bog'liq xavfli omillarda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari.
		O'rnatish paytida xavfsizlik, gigiyena va sanitariya talablari.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Chizma va loyihalarga qat'iy rioya qilish
		2. Quvur yo'nalishini va montaj nuqtalarini loyihaga muvofiq aniq bajarish.
		3. Quvurlarni to'g'ri, xavfsiz va germetik o'rnatishda mustaqil qaror qabul qilish.
		4. Ulanish turini tanlash, burchak va qiyalikni to'g'ri aniqlash.

		5. Ish jarayonida aniqlangan kamchilik va muammolarni darhol bartaraf etish yoki ustalarga xabar berish.
		6. Xavfsizlik va ish sifati uchun shaxsiy javobgarlik.
		7. Asbob-uskunalar va materiallarga mas'ullik bilan munosabatda bo'lish.
		8. Ishlatilgan jihozlarni to'g'ri foydalanish va nosoz holatda ishlatmaslik.
		9. Montajdan so'ng tizimni ishga tushirishga tayyor holatga keltirish.
B2.3 – Quvur tizimlarini texnik sinovdan o'tkazish va ishga tushirish	B2.01.3 – Sinovdan oldin quvur tizimining germetikligi va butunligini tekshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Quvur ulanish joylarini ko'zdan kechirish va jipslikka vizual baho berish.
		2. Tizimni muvaqqat yoki past bosim ostida suv/havo bilan to'ldirib sinovga tayyorlash.
		3. Quvurdagi ulanish va tutashuv joylarida siznish (oqish) belgilari bor-yo'qligini tekshirish.
		4. Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish va qayta tekshirish uchun tayyorlash.
		5. Quvurlar va birikmalarni ko'zdan kechirish orqali mexanik shikastlanishlar (chiziq, yoriq, egrilik va h.k.) bor-yo'qligini aniqlash.
		6. Barcha chiqish nuqtalarini vaqtincha berkitish (zaglushka, ventil yoki probka bilan).
		7. Sinov vaqti, uskunalar turi, bosim darajasi va mas'ul shaxslarni belgilash
		Ko'nikmalar:
		Germetiklikni tekshirish uchun maxsus asboblardan (manometr, sinov nasoslari va boshqalar)dan foydalanish.
		Vizual va texnik ko'rik usullarini qo'llash orqali muammoni aniqlash.
		Quvurlar va fittinglarni xavfsiz tarzda sinovga tayyorlash.
		Kamchiliklar va oqish manbalarini tez va aniq topa olish
		Quvurlar, birikmalar va fittinglardagi yoriqlar, zaif payvandlar va mexanik shikastlanishlarni ko'z bilan aniqlay olish.
		Rezbali, muftali, flanesli ulanishlar va payvandlangan joylarda germetiklikni tekshirish va aniqlash.
		Sinov bosimi uchun kerakli uskunalarni to'g'ri joylash va ular bilan ishlashni bilish.
		Sinov paytida yorilish yoki oqish xavfiga qarshi tayyorgarlik ko'rish.
		Sinovni boshlashdan oldin xavfsizlik talablariga amal qilish va himoya choralarini ko'rish.
		Himoya vositalaridan foydalanish (ko'zoynak, qo'lqop, xavfsiz masofa saqlash va h.k.).
Bilimlar:		
Quvur tizimlari turlari va ularda qo'llaniladigan germetik ulanish texnologiyalari.		

		Sinovdan oldin bajariladigan tayyorlov ishlari va xavfsizlik choralari.
		Siznish (oqish) belgilari, ularning sabablari va bartaraf etish usullari.
B2.02.3 – Quvurlarni bosim ostida oqish yoʻqligini va bosimga bardosh bera olishini sinovini oʻtkazish jarayoni		Sinov va tekshiruv natijalarini hujjatlash, texnik akt tuzish qoidalari.
		Himoya vositalaridan foydalanish va texnik xavfsizlikni taʼminlash tartibi
		Mehnat harakatlari:
		1. Quvur tizimini bosim sinovi uchun maxsus uskunalar yordamida suv yoki havo bilan toʻldirish.
		2. Manometr yoki sinov nasoslari orqali belgilangan bosimda tizimni bosim ostida ushlab turish.
		3. Sinov davomida ulanish va tutashuv joylarini kuzatish, siznish (oqish) va mustahkamlikni nazorat qilish.
		4. Sinov natijalarini qayd etish va texnik akt tuzish.
		5. Sinov oʻtkaziladigan quvur tizimi toʻliq oʻrnatilganligini va tuzilmalar butunligini tekshirish.
		6. Barcha chiqish nuqtalarini yopish (ventil, zaglushka, probka bilan).
		7. Oqova tizimida (agar sinov talab qilinsa) – maxsus uskuna bilan suv yoki havo yuborish.
		8. Manometr va nasos, kompressor kabi sinov uskunalarini tizimga ulash
		Koʻnikmalar:
		Sinov uskunalarini (gidravlik/pnevmatik nasos, manometr va h.k.) toʻgʻri ulash va boshqarish.
		Sinov vaqtida quvur tizimidagi bosimni oʻlchay olish va tahlil qilish.
		Siznish yoki konstruktiv nosozliklarni aniqlash va taʼmirlarga yoʻnaltirish.
		Sinov natijalarini hujjatlash va texnik hisobot tuzish.
		Barcha chiqish nuqtalarini yopish va zarur holda zaglushkalar, ventillar, probkalar oʻrnatish.
		Bosim ostida ishlash xavflarini tushunib, shaxsiy himoya vositalaridan (qoʻlqop, koʻzoynak, masofa saqlash) foydalanish
		Bilimlar:
		Gidravlik va pnevmatik bosim sinovlari oʻtkazish usullari va normativ talablari.
	Quvur materiallarining mustahkamlik xossalari va siznish sabablari.	
	Sinov davomida amal qilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalari.	
	Sinov usuli qoʻllanilish qoidalari	
	Har bir usulda qoʻllaniladigan bosim meʼyorlari, vaqt davomiyligi va texnik shartlar	

		Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va xavfsiz ishlash qoidalari.
	B2.03.3 – Sinov natijalarini baholash va texnik hujjatlarga qayd etish	Mehnat harakatlari:
		1. Sinovdan keyin quvur tizimidagi bosimni kuzatish va o'zgarishlarni qayd etish.
		2. Siznish yoki konstruksiyadagi har qanday nosozlikni aniqlash va baholash.
		3. Sinov natijasini belgilangan me'yorlar bilan solishtirish.
		4. Natijalarni maxsus texnik hujjat (akt, jurnal yoki sinov protokoli)ga rasmiy ravishda qayd etish.
		5. Quvurda bosim tushgan-tushmaganini yoki sizish bo'lgan-bo'lmaganini manometrdan ko'radi va yozib qo'yish
		6. Quvur birikmalari, payvand joylari va ventillarni ko'zdan kechirish
		7. Tomchi, suv chiqishi yoki namlik bor-yo'qligini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Manometr ko'rsatkichlarini aniq o'qish va tahlil qilish.
		Normativ hujjatlar asosida sinov natijalarini baholay olish.
		Sinov vaqtida aniqlangan muammolarni aniq tavsiflash va yozma ravishda ifoda etish.
		Texnik akt va sinov jurnalini to'g'ri tuzish, rasmiylashtirish.
		Bosimning tushishi yoki barqaror turishini kuzatib baholay olish.
		Quvur birikmalaridagi tomchilar, namlik, yoriqlarni ko'z bilan aniqlash.
		Kamchilik bor joyni belgilash va qayd etish.
		Kamchiliklar bo'lsa, aniq va tushunarli qilib bayon etish
		Bilimlar:
		Suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimiga oid sinov standartlari (O'zSt, SNIIP, GOST va boshqalar).
		Sinov turlari gidravlik, pnevmatik va vizual tekshiruvning talablari va farqi.
	Texnik hujjatlar (dalolatnoma, jurnal, hisobotlar) tuzish qoidalari.	
	Quvurda sizish, tomchi, namlik, yoriq kabi belgilar	
	Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish qoidalari.	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Sinov jarayonida xavfsizlik talablariga rioya qilish
		2. Odamlarga, binoga va uskunalariga zarar yetkazmaslik uchun ehtiyot choralarini ko'rish.
		3. Texnik sinov natijalarini va xatolarni mustaqil aniqlash qobiliyati, oqish, sizish yo'qligi bosim tushishi yoki boshqa muammolarni aniqlash.
		4. Ishga tushirishdan oldin tizimni to'liq tekshirish va tayyorligini ta'minlash.

		5. Sinov jarayonida qabul qilinadigan qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilish va tezkor harakat qilish
		6. Tizimda muammo yuzaga kelsa, uni bartaraf etish bo'yicha tashabbus ko'rsata olish.
B3.3 – Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish	B3.01.3 – Suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarining holatini tekshirish va diagnostika qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Quvurlar, armatura va uskunalarni vizual tekshirish orqali texnik holatini baholash.
		2. Diagnostika asboblari yordamida siznish, tiqilish yoki nosozlik manbalarini aniqlash.
		3. Quvur tizimidagi bosim va suv o'tish qobiliyatini tekshirish.
		4. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish ta'mirlash
		5. Yoriq, zang, sizish, namlik yoki boshqa mexanik shikastlanish belgilarini aniqlash
		6. Oqimni tekshirib, oqova suvlarning to'silib qolgan joylarini aniqlash.
		Ko'nikmalar:
		Quvur va uskunalarni ko'z bilan tekshirib, yoriqlar, zang, sizish va tiqilmalarni aniqlash.
		Quvur va armaturalarni ko'z bilan tekshirish va umumiy texnik holatni baholash.
		Diagnostik uskunalar (endoskop, manometr, tiqilish aniqlagich va boshqalar) to'g'ri foydalanish
		Sizish, tiqilish yoki korroziya belgilariga qarab sababni aniqlash.
		Suv tomchilari, namlik, turli moddalar oqib chiqishi kabi belgilari orqali muammoli nuqtalarni ko'ra bilish.
		Quvurdagi bosimni to'g'ri o'lchay olish, manometr ko'rsatkichlarini o'qish va baholay olish.
		Diagnostika natijalari asosida xulosalar chiqara olish.
		Diagnostika vaqtda xavfsizlik qoidalariga amal qilish
		Kamchiliklarni aniq, qisqa va tushunarli tarzda hujjatlashtirish.
		Bilimlar:
		Suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarining konstruksiyasi va ishlash prinsiplari.
		Nosozliklar turlari (sizish, tiqilish, zanglash, shovqin va h.k.) va ularning belgilari.
Diagnostik uskunalar turlari va ulardan xavfsiz foydalanish qoidalari.		
Holatni baholash, texnik xulosa berish va ta'mir tavsiyalarini rasmiylashtirish talablari.		
Quvurlardagi sizish, tiqilmalar, zang, yoriqlar yoki armatura ishlamayotgan holatning sabablari		
Muammoning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish usullari		

		Tekshirish paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar va ulardan himoyalalanish usullari.
		Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish qoidalari.
B3.02.3 – Kamchiliklarni bartaraf etish ventil, kran, muftalarni almashtirish		Mehnat harakatlari:
		1. Nosoz yoki eskirgan ventil, kran yoki muftani demontaj qilish (yechish).
		2. Yangi, mos o'lchamdagi va turdagi detallarni tanlash va tayyorlash.
		3. Yangi qismni germetik va xavfsiz tarzda o'rnatish.
		4. Almashtirilgan qismni ishlab ko'rish va siznish yoki boshqa nosozlik yo'qligini tekshirish.
		5. Almashtirish kerak bo'lgan qism quvur qismida suv oqimini to'xtatish (ventilni yopish yoki tizimni to'liq o'chirish)
		6. Zarur bo'lsa, tizimni to'liq bo'shatish (suvni chiqarib yuborish).
		7. Ventil, kran yoki muftani ehtiyotkorlik bilan buzmasdan ajratib olish.
		Ko'nikmalar:
		Turli turdagi kran, ventil va muftalarning konstruksiyasini bilib, to'g'ri yechish va o'rnatish.
		Rezbali, payvandli yoki muftali ulanmalarni xavfsiz va germetik bajarish.
		Asbob-uskunalardan (gayechный kalit, truborez, lenta FUM va h.k.) to'g'ri foydalanish.
		Ta'mirdan so'ng tizimni qayta ishga tushirish va sinovdan o'tkazish
		Qismlarni buzmasdan va quvurni shikastlamay yechib va o'rnatish.
		Eski germetikni tozalash, yangi germetikni to'g'ri qo'llash.
		Rezbali ulanishni siqishda ortiqcha kuch ishlatmasdan, to'g'ri mahkamlash
		Suvni qayta ochib, yangi o'rnatilgan qismda sizish yoki tomchi bor-yo'qligini tekshirish.
		Zarur holda qismni qayta mahkamlash yoki joyini o'zgartirish.
		Bilimlar:
		Ventil, kran, mufta turlari va ularning texnik xususiyatlari.
	Ulanish usullari (rezbali, muftali, payvandli va h.k.) va montaj qoidalari.	
	Siznish va boshqa nosozliklarning sabablari hamda ularni bartaraf etish usullari.	
	Xavfsizlik texnikasi, suvni o'chirish va tizimni to'g'ri izolyatsiya qilish qoidalari.	
	Turli xil ventil, kran, muftalarning tuzilishi, ishlash prinsipi va vazifasi	

		Shaxsiy himoya vositalari (qo'lqop, ko'zoynak, klapanli kalit va h.k.)dan foydalanish qoidalari
	B3.03.3 – Quvur ichidagi tiqilish va chiqindilarni tozalash	Mehnat harakatlari:
		1. Tiqilish yuzaga kelgan quvur qismini aniqlash va tozalash usulini tanlash.
		2. Qo'l yoki mexanik vositalar (zond, tros, nasos, kompressor va h.k.) yordamida tiqilishni bartaraf etish.
		3. Quvur ichidagi chiqindilarni chiqarish va sistema o'tkazuvchanligini tiklash.
		4. Tozalashdan so'ng suv o'tishi, oqish yoki qayta tiqilish yo'qligini tekshirish.
		5. Agar tiqilish qattiq va chuqurda bo'lsa, gidrodinamik tozalash uskunasi yordamida quvur ichiga yuqori bosimda suv yuborib, chiqindilarni yuvib chiqarish
		6. Agar tiqilish organik yoki yog'li chiqindilardan iborat bo'lsa, maxsus kimyoviy moddalar (erituvchilar)ni quvurga quyib, vaqt o'tishi bilan parchalanishini kutish va chiqarish.
		7. Tozalashdan so'ng quvurga suv yuborib, oqim tiklanganini tekshirish.
		8. Nosoz quvurda ishlashda shaxsiy himoya vositalarini (qo'lqop, niqob, maxsus kiyim) kiyish.
		9. Quvur ichida gaz yoki zararli moddalar bo'lishi ehtimoliga tayyor turish.
		Ko'nikmalar:
		Qo'l vositalari (tros, zond) va mexanik/elektr tozalash uskunalaridan to'g'ri foydalanish.
		Quvurni buzmasdan chiqindilarni xavfsiz chiqarish.
		Tozalash jarayonida gigiyena va xavfsizlik talablariga amal qilish.
		Suv oqimidagi o'zgarishlar va to'sqinliklar orqali tiqilish joyini topa olish.
		Quvurga bosim ostida suv yuborib, tiqilishni samarali ochish usullarini qo'llay olish.
		Turli xil chiqindilar uchun mos keladigan erituvchilarni tanlash.
		Kimyoviy moddalarni xavfsiz qo'llash, dozani aniqlash va ta'sir vaqtiga rioya qilish.
		Tozalashdan so'ng suv yuborib, oqim tiklanganini aniqlash.
		Iflos suvlar, kimyoviy moddalar va boshqa xavfli omillar bilan ishlaganda shaxsiy himoya vositalaridan (qo'lqop, niqob, rezina poyabzal) foydalanish.
		Bilimlar:
		Quvur tizimlarida tiqilish va chiqindilar yuzaga kelish sabablari va ularning belgilari.
		Qo'l va mexanik tozalash usullari (zond, nasos, kimyoviy vositalar va h.k.).

		Ximik moddalar bilan ishlashda ehtiyot chorolari va texnika xavfsizligi.
		Tozalashdan keyingi tekshiruv usullari (suv o'tkazuvchanlik, vizual ko'rik, sinov).
		Suv va oqova tizimi bilan ishlashdagi xavflar (gaz chiqishi, zaharli moddalar, kimyoviy ta'sirlar)
		Quvur tozalangandan so'ng uning holatini baholash, suv oqimini tiklanganini aniqlash va zarur holda qo'shimcha choralar
		Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va xavfsiz ishlash qoidalar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ta'mirlash jarayonida xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish va xavfsizlikni ta'minlash.
		2. Muammolarni aniqlash, to'g'ri usullarni tanlash va samarali amalga oshirish.
		3. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mir ishlarining rejali va o'z vaqtida bajarilishiga kafolat berish
		4. Tizim ishlash vaqtida buzilishlardan himoya qilish va texnik holatni doimiy nazorat qilish.
		5. Muammoni o'z mustaqil hal etolmasa, mas'ullarga tezkor xabardor qilish.
		6. Xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari bo'yicha texnik hujjatlarni to'g'ri tuzish va rasmiylashtirish
Texnik va/yoki texnologik talab	<p>Truborez (quvur kesgich) quvurlarni belgilangan o'lchamda kesish;</p> <p>Quvurlarni kerakli burchakda egish va shakl berish;</p> <p>Metall quvurlarni bir-biriga payvandlash yoki payvand ulash ishlari (gazli payvand, elektr payvand va boshqalar);</p> <p>Quvur tizimlarini kompressorlar va nasoslarda sinovdan o'tkazish, bosimni tekshirish va suvni bosim ostida uzatish;</p> <p>Silikon, FUM lenta va germetik moddalar ulamalarini germetik qilish va siznislarni oldini olish.;</p> <p>Quvurlarni kesish, va montaj ishlarida yordam beruvchi asboblari.</p>	

Kasbning nomi	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari kuzatuvchisi	
Mashg'ulot nomining kodi	71269	
TMR bo'yicha malaka darajasi	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>Texnik tafakkur va kuzatuvchanlik — suv va oqova suv tizimlaridagi o'zgarishlarni tezda sezish, tahlil qilish va to'g'ri baholay olish qobiliyatiga ega bo'lishi. Mas'uliyat va aniqlik — tizim ishini doimiy nazoratda ushlab turish, o'lchov va qaydlarni xatosiz yurita olish.</p> <p>Tezkorlik va diqqat — avariya yoki nosozlik holatlarida tezda harakat qilish, xabar berish va chora ko'rish.</p> <p>Texnik vositalar va asbob-uskunalar bilan ishlash ko'nikmasi — o'lchov, nazorat va signalizatsiya jihozlarini to'g'ri qo'llay bilish.</p> <p>Muloqot va jamoada ishlash madaniyati — ustalar, texniklar va muhandislar bilan hamkorlikda ishlashga tayyor bo'lish.</p> <p>O'zini rivojlantirishga intilish — yangi texnologiyalar, nazorat usullari va jihozlar bo'yicha bilimlarini muntazam yangilab borish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	1)O'rta maxsus ta'lim 2)Umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.3 – Ish o'rnini tashkil qilish	D1.01.3 – Ishchilarni yo'riqnomadan o'tkazish va vazifalarini belgilash.	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Yo'riqnomani o'tkazish
		2. Vazifasini belgilash
		3. Ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlari hamda inshootlarining texnik holatini doimiy kuzatish
		4. Suv ta'minoti va oqova suv tizimlarida nosozliklar, sizib chiqishlar, to'siqlar yoki avariya holatlarni aniqlash.

		5. Aniqlangan nosozliklar to'g'risida dispetcherga yoki mas'ul shaxsga ma'lumot berish.
		6. Tarmoqdagi suv bosimi, oqim tezligi va suv sathi ko'rsatkichlarini asbob-uskunalar orqali nazorat qilish.
		7. Nasos stansiyalari, suv o'lchash quvurlari va klapanlarning ish faoliyatini kuzatadi va nazorat qilish.
		8. Ish joyida mehnat, texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish
		Ko'nikmalar:
		Mehnat muhofazasi talablariga rioya qilish
		Texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarining tuzilishi va ishlash prinsipini bilish.
		Quvurlar, armatura va suv o'lchash asboblari bilan ishlashni bilish.
		Texnik hujjatlarni o'qish va tushunish (sxemalar, chizmalar).
		Oqova suv tizimlarida muammolarni tezda aniqlash va choralar ko'rish.
		Ish joyida texnika xavfsizligi, elektr xavfsizligi va gigiyena qoidalariga amal qilish
		Bilimlar:
		Texnik xizmat ko'rsatish qoidalari — tizimlarni kuzatish, tekshirish va nosozliklarni aniqlash usullari
		Suv manbalaridan tortib iste'molchigacha bo'lgan tarmoq, nasos stansiyalari, quvurlar, suv o'lchash va taqsimlash uskunalari
		oqova suvlarning yig'ilishi, oqizilishi va tozalash inshootlariga yuborish tartibi
		Tegishli o'lchov asboblari (manometr, debetomer va boshqalar)
		Suv inshootlari, quvurlar, chuqurliklarda yoki yopiq joylarda ishlashda xavfsizlik choralari
		Suv oqishlari, quvur yorilishi yoki suvlarni chiqarib yuborish tizimlari to'silishi holatlarida to'g'ri va tezkor chora ko'rish tartibi
		Ichimlik suvi va oqova suv tizimlariga oid sanitariya, ekologiya va texnik reglamentlar bo'yicha asosiy me'yorlar
	D1.02.3 – Ish o'rnida ishchilarning xavfsiz harakatlanishini belgilash	Mehnat harakatlari:
		1. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini montaj qilish
		2. Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini ta'mirlash
		3. Tizimlarda olib borilayotgan ishlar vaqtida vaqtincha to'siqlar yoki signal lentalarini o'rnatish

		4. Ish joyida xavfsiz yo'laklar, o'tish joylari va texnika harakatlanadigan yo'llarni aniqlab kuzatish
		5. Xavfli zonalarni (chuqurliklar, ochiq quduqlar, truboprovod o'tkazilgan joylar va h.k.) ogohlantiruvchi belgilar bilan belgilash
		6. Yoritish vositalarini tekshiradi, yetarli yoritilmagan joylarda qo'shimcha yoritish tashkil qilish.
		7. Ishchilarning xavfsiz kirish-chiqish yo'llarini nazorat qilish, ularni to'sib qo'yilmasligini ta'minlash.
		8. Nam yoki sirpanchiq joylarda maxsus qoplamalar yoki ogohlantiruvchi belgilarni o'rnatish
		Ko'nikmalar:
